

TASDIQLAYMAN:

“UMS” MChJ ma'muriy direktori



M.R. Kamalidinov

2026-yil "17" 02

*LB va LD turidagi simob tarkibli (lyuminessent) lampalarni tashish va utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar xaridi uchun*

**TEXNIK TOPSHIRIQ**

*"UMS" MChJ ehtiyojlari uchun*

*("UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS" mas'uliyati cheklangan jamiyati)*

**Toshkent shahri**

**2026-yil**

## Mundarija

1. Umumiy ma'lumotlar.....	3
1.1 Xizmatni xarid qilish maqsadi.....	3
1.2 Xizmat ko'rsatish amalga oshirilayotgan loyihani bajarish uchun asos.....	3
1.3 Ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati va hajmi.....	3
2. Xizmatlarning texnik xususiyatlari.....	3
3. Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) joyi.....	3
4. Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) muddatlari.....	3
5. Ishtirokchiga qo'yiladigan talablar.....	3
6. Kafolat berish hajmi yoki muddatiga qo'yiladigan talablar.....	3
7. Xizmat ko'rsatish xavfsizligiga qo'yiladigan talablar.....	3
8. Ishtirokchining texnik taklifi tarkibiga qo'yiladigan talablar.....	4
9. Xizmatlarni qabul qilishga qo'yiladigan talablar.....	4

## **1. Umumiy ma'lumotlar**

Iste'mol xususiyatlarini yo'qotgan LB va LD turidagi simob tarkibli (lyuminessent) lampalarni tashish va utilizatsiya qilish xizmatlari.

### **1.1 Xizmatni xarid qilish maqsadi**

Ekologik me'yorlarga rioya qilish maqsadida LB va LD turidagi simob tarkibli (lyuminessent) lampalarni utilizatsiya qilish xizmatlarini olish.

### **1.2 Xizmat ko'rsatiladigan loyihani amalga oshirish uchun asos.**

1.3.5.2-modda Bino va xonalarga xizmat ko'rsatish\Sotuv ofislari

### **1.3 Ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati va hajmi**

Tarkibida simob mavjud bo'lgan lampalarni tashish, utilizatsiya qilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotga metall simobni (xavflilik darajasi 1-sinf, xavfli komponentlarni o'z ichiga olgan chiqindilarni) utilizatsiya qilish uchun topshirish O'zbekiston Respublikasi talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Simobli lampalarni qabul qilish Ijrochi tomonidan Buyurtmachining hududida amalga oshiriladi. Yig'ish, saqlash va tashish uchun idishlarni Buyurtmachi ta'minlaydi. Olib ketish Buyurtmachi bilan kelishilgan holda ish kunlarida amalga oshirilishi lozim. Simobli lampalar va tarkibida simob mavjud chiqindilarni olib ketish uchun faqat maxsus idishlardan foydalanishga ruxsat beriladi.

Tarkibida simob mavjud chiqindilarni tashishda idishlar shikastlanmasligi, simob yo'qolmasligi, transport vositalari va atrof-muhit simob bilan ifloslanmasligi uchun joylarni to'g'ri qatorlar bilan joylashtirishni ta'minlash zarur. LB turidagi lampalar qog'oz karton qistirmali idishlarga har qator oralig'ida joylashtiriladi. LD turidagi lampalar o'ralib, qistirmalar bilan qavatma-qavat taxlanadi. Tarkibida simob mavjud chiqindilarni yuklash, tashish va tushirish mas'ul shaxs nazorati ostida amalga oshirilishi shart. Transport vositalariga qadoqlangan lampalarni yuklash ehtiyotkorlik bilan bajarilishi lozim. Yuklash paytida qadoqlarni uloqtirish qat'iyan man etiladi. Qadoqlarni taxlashda mustahkamroq idishlar pastki qatorlarga joylashtirilishi kerak. Simob saqlovchi chiqindilar va asboblari simobli chiqindilar va buyumlarni yig'ish hamda tashish uchun mo'ljallangan maxsus idishlarga, tegishli texnik shartlarga muvofiq ravishda joylashtirilishi lozim. Qabul qilish shartlari: barcha turdagi lampalar zavod qadoqlarida bo'lishi shart.

## **2. Xizmatlarning texnik xususiyatlari**

LB turidagi simobli (lyuminessent) lampalarni utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 182 dona, LD - 2 257 dona miqdorida.

## **3. Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) joyi. Qo'llanish sohasi**

Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Farg'ona yo'li ko'chasi, 15-uy

## **4. Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) muddatlari**

Ishni bajarish muddati 10 kun

## **5. Ishtirokchiga qo'yiladigan talablar**

Simobli lampalarni demerkurizatsiya qilish faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaning mavjudligi.

## **6. Kafolat berish hajmi va/yoki muddatiga qo'yiladigan talablar**

Kamida 12 kalendar oy.

#### **7. Xizmatlar ko'rsatish xavfsizligiga qo'yiladigan talablar.**

Ijrochi o'z xodimlari O'zbekiston Respublikasining atrof-muhit sohasidagi qonun hujjatlari normalari va qoidalarini so'zsiz bajarishini kafolatlaydi.

#### **8. Ishtirokchining texnik taklifiga qo'yiladigan talablar.**

Ishtirokchining texnik taklifi quyidagilarni o'z ichiga olishi shart:

- simob tarkibli lampalarni utilizatsiya qilish faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya nusxasi.
- chiqindilar bilan ishlash sohasida faoliyat yuritish huquqini tasdiqlovchi guvohnomalar (belgilangan tartibdagi sertifikatlar) nusxasi.
- simob tarkibli lampalarni tashish va utilizatsiya qilishni o'z ichiga olgan ishlarni bajarish qiymati.

#### **9. Xizmatlarni qabul qilishga qo'yiladigan talablar.**

Xizmatlarni qabul qilish ko'rsatilgan xizmatlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolash orqali amalga oshiriladi. Topshiriq talablaridan chetga chiqishlar yoki xizmatlardagi boshqa kamchiliklar aniqlanganida, agar bular ko'rsatilgan xizmatlar natijasini yomonlashtirsa.

#### **Ishlab chiqildi:**

Ma'muriy faoliyatga  
hamrohlik qilish guruhi  
rahbari

\_\_\_\_\_ B.F. Ubaydullayev

#### **Tayyorlandi:**

Ma'muriy faoliyatga hamrohlik  
qilish guruhi yetakchi mutaxassisi

\_\_\_\_\_ 

M.S. Ruzaykina